



ENSURING THE DIRECT APPLICATION OF THE CONSTITUTION

Choriyev Ulugbek Rustamovich

Tashkent State University of Law

Faculty of Public Law, State-Legal Activity Program, 2nd-year student

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656947>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Constitution's
application, selective
application of
Constitution norms, direct
application of the
Constitution, amparo
institution.

ABSTRACT

This article discusses the types of Constitution norms based on their application, the content of the principle of direct application of Constitution norms, the views of various scholars on this principle, foreign practices, and the legal and organizational measures necessary to ensure the full and effective functioning of this principle in practice. Furthermore, the article examines the introduction of a new institution, widely used in foreign practices, which could be implemented in our legal system, its content and mechanisms, and the main issues to be addressed for its incorporation into the national legal framework. The relevance of this article lies in the fact that achieving an effective mechanism for the direct application of Constitution norms is directly related to the ability of citizens to fully exercise their fundamental constitutional rights and freedoms. Moreover, ensuring the effective operation of this principle would increase citizens' trust in our legal system and contribute to improving the country's position in international human rights rankings.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЯМОГО ПРИМЕНЕНИЯ КОНСТИТУЦИИ

Чориев Улугбек Рустамович

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет публичного права, направление государственной правовой деятельности,

2-й курс. e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656947>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Применение
Конституции,
избирательное
применение норм
Конституции, прямое
применение

ABSTRACT

В данной статье рассматриваются виды норм Конституции в зависимости от их применения, содержание принципа прямого применения норм Конституции, мнения различных ученых по этому вопросу, зарубежный опыт, а также правовые и организационные меры, которые должны быть приняты для обеспечения полного и эффективного функционирования этого принципа на практике. Кроме того, в статье анализируются новые институты, которые

Конституции,
институт ампаро.

предлагается внедрить в нашем законодательстве и которые широко используются в зарубежной практике, их содержание и механизмы, а также основные вопросы, которые необходимо решить для их внедрения в национальную правовую систему. Актуальность данной статьи заключается в том, что достижение эффективного механизма прямого применения норм Конституции напрямую связано с возможностью граждан непосредственно реализовывать свои основные конституционные права и свободы. Также обеспечение эффективного функционирования этого принципа позволит повысить доверие граждан к нашей правовой системе и улучшить позицию страны в международных рейтингах по правам человека.

KONSTITUTSIYANING TO'G'RIDAN-TO'G'RI AMAL QILISHINI TA'MINLASH MASALALARI

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, davlat-huquqiy

faoliyat yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656947>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Konstitutsiyaning amal qilishi, Konstitutsiya normalarining tanlangan holda amal qilinishi, Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi, amparo instituti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Konstitutsiya normalarining amal qilishiga ko'ra turlari, Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi prinsipining mazmuni, bu bo'yicha turli olimlar fikrlari, xorijiy amaliyotlar va ayni prinsipni amaliyotda to'liq va samarali ishlashini ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan huquqiy va tashkiliy choralar, shuningdek ushbu prinsipni amalda ishlatish bo'yicha joriy qilinishi tavsiya qilinadigan va xorijiy amaliyotda keng ishlatiladigan yangi institut, ushbu institutning mazmuni va mexanizmi, uni milliy huquqiy tizimimizga joriy qilishning asosiy masalalari tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishining samarali mexanizimga erishish fuqarolarning eng asosiy huquqlari hisoblangan Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini bevosita ishlatish bilan bevosita bog'liqligidadir. Shuningdek, ayni prinsipni amalda samarali ishlashini ta'minlash orqali fuqarolarning davlatimiz huquqiy tizimiga ishonchini oshirish, davlatimizning inson huquqlarining ta'minlanganlik darajasi bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirishga erishish mumkin.



KIRISH. Hozirgi davrda inson huquq va erkinliklariga, va ayniqsa ularning davlatning eng asosiy va oliy yuridik kuchga ega bo'lmish qonuni - Konstitutsiyada belgilangan huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek ularning Konstitutsiyada belgilangan huquqlarini ro'yobga chiqarishda davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining aralashuvi va to'sqinliklarini oldini olish eng asosiy va dolzarb masala bo'lib ko'tarilmoqda. Bu kabi dolzarb muammolarning kelib chiqishini oldini olish uchun ko'pchilik davlatlar Konstitutsiyalarida "Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilish" prinsipini belgilab qo'ymoqda. Biroq ushbu prinsipning Konstitutsiyada belgilanishining o'zigina yetarli bo'lmaydi. Buni amalda samarali ishlashi uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilishi juda muhim.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotning maqsadi Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi prinsipiga oid nazariy va amaliy muammolarni tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu muammolarni tahlil qilish asnosida ularga oid turli yechimlarni analiz qilish va shuningdek ularga qo'shimcha tarzda muqobil huquqiy va tashkiliy yechimlarni taklif qilishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning sotsiologik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo'llagan.

MUHOKAMA VA TAHLIL. Eng avvalo, Konstitutsiya normalarining amal qilishi haqida eng umumiy, nazariy ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz joiz. Chunki bu masala bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar haligacha olimlar tomonidan keng yoritilmasdan, faqatgina bir taraflama muhokama qilinib, mavzu to'liqligicha yoritilmasdan qolmoqda degan fikrdamiz.

Konstitutsiya normalarining amal qilishi ikkiga bo'linadi:

- 1) *To'g'ridan-to'g'ri amal qilishi (Direct application)*
- 2) *Tanlangan holatda amal qilinishi (Selevtive application).*

Ko'pchilik ilmiy-nazariy manbalarda faqat birinchi turi (*to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi*) muhokama qilinadi, biroq bizningcha ikkala turni ham muhokama qilish maqsadga muvofiq. Birinchi navbatda, ayrim normalargagina amal qilishga oid turini muhokama qilsak. Ushbu nazariyani asosiy ma'qullovchilar Xitoy huquqshunoslari hisoblanadi, juda ko'p xitoylik huquqshunos olimlar asarlarida ayni masala muhokamasiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Konstitutsiya normalarining tanlangan holda amal qilishi o'z nomlanishidan ham ma'lumki, Konstitutsiyaning barcha moddasi emas, balki ayrim moddalari to'g'ridan to'g'ri amal qilishini, qolganlari esa aksinchaligini nazarda tutadi. Ya'ni ushbu nazariyaga ko'ra ayrim normalarni shunchaki to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlab bo'lmaydi, shunday ekan bu masalani joriy qonunlarga qoldirish zarur. Ushbu nazariyaning asosiy qo'llovchilaridan bo'lgan Qianfan Zhang o'zining "Xitoy Konstitutsiyasi normalarini tanlangan holda amal qilinishi bo'yicha" asarida mazkur qo'llash turini quyidagi asosiy sababni keltiradi: "Konstitutsiya – bu oddiy qonun emas, asosiy qonundir. Davlatlar o'z Konstitutsiyasida har bir huquqni yoki masalani har bir kichik va muhim jihatlarigacha mustahkamlab qo'ya olmaydi. Shunday ekan, har bir normani to'g'ridan to'g'ri amal qilishi amaliyotga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, bu ham keraksiz, ham imkonsiz ishdir". Shuningdek, Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan normalarini ajratib chiqishda u ikki muhim mezonni keltiradi. Ya'ni aniqlik va amaliyotda qo'llash imkoniyatining mavjudligi. Uning fikricha, har bir normani shu ikki mezonga solib chiqish orqali qaysi normalarning to'g'ridan to'g'ri amal qilishini belgilab olish mumkin [1].

Bizningcha, ushbu masalada har bir davlatning huquqiy tizimidagi o'ziga xos rivojlanish darajasi va shu kabi boshqa muhim masalalar hisobga olinishi kerak. Shuningdek, Konstitutsiya



normalarining to'g'ridan-to'g'ri ishlashini bir qator islohotlar va izlanishlar orqali amalda samarali ishlashiga erishish mumkin. Endi bevosita Konstitutsiya normalarining to'g'ridan to'g'ri amal qilishi prinsipi haqida gaplashsak. It is a type of a state-authoritative activity of authori- zed bodies implemented in special manner defi- ned by law, directed to realization of legal norms in concrete cases and adoption of acts of imple- mentation of law [2]. Ushbu prinsip davlatimiz qonunchiligiga yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bilan kirib keldi. Ushbu tushuncha mazmuni haqida turli olimlarning ilmiy-doktrinal manbalaridagi fikrlarini ko'rib chiqishimiz o'rinlidir. M.Abdullayevaning fikricha, Konstitutsiyani to'g'ridan- to'g'ri qo'llash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

fuqarolar va boshqa jismoniy shaxslar, konstitutsiyaviy qonunlarda nazarda tutilgan hollarda esa yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy normalar va ularni himoya qilish usullarini bevosita amalga oshirish;

davlat organlari, umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan aniq ishlarni hal qilishda konstitutsiyaviy normalarni qo'llash;

konstitutsiyaviy sudlov organi tomonidan konstitutsiya normalarini bevosita qo'llash kabilar [3].

O.T.Husanovning fikricha, Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilish prinsipi uning normalarini hayotga tatbiq qilish uchun (Konstitutsiyaning o'zida shu talab ko'rsatilmagan bo'lsa) qo'shimcha maxsus qonunlar yoki qonunosti hujjatlar qabul qilish shart emas [4]. Shuningdek, yana bir yuridik adabiyotda Konstitutsiyaviyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi – davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo'llash amaliyotida bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishi va rioya etishini ko'zda tutadi [5]. Bizningcha, yuqoridagi barcha olimlarning ushbu tushuncha mazmuniga oid fikrlari o'rinli. Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi – bu Konstitutsiya normalarining real hayotga tatbiq qilinishida fuqarolar ham, davlat organlari ham ushbu masalani bevosita amalga oshirishi, ya'ni ushbu normaning ishlashi uchun qo'shimcha qonunchilik hujjatlariga talab bo'lmasligidir. Shuningdek, N.Eshpulatova bu bo'yicha quyidagicha fikr bildiradi: Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlarga, balki Konstitutsiya normalariga asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi" [6]. Ushbu normaning Konstitutsiyamizga kiritilishida bir qator xorijiy davlatlar tajribasiga asoslangan. Chunki ayni normaning amalda bo'lishi demokratik va huquqiy davlatlarning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Xususan, Portugaliya Konstitutsiyasining 18-moddasida quyidagicha deyiladi: "Huquq, erkinlik va kafolatlariga oid Konstitutsiyaviy normalar to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va ommaviy va xususiy tashkilotlar uchun ham majburiydir [7]. Germaniya Konstitutsiyasining 1-moddasiga ko'ra "Asosiy huquqlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun majburiydir va to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi" [8]. Shuningdek, Polsha Konstitutsiyasining 8-moddasiga ko'ra Konstitutsiya Respublikaning oliy qonuni hisoblanadi va Konstitutsiya normalari Konstitutsiyaning o'zi buni istisno qilmasa, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi [8].

Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishining o'zi yetarli emas, uni amalda bo'lishi uchun zaruriy harakatlarni amalga oshirish juda muhimdir. Hozirgacha bu bo'yicha ayrim qabul qilingan hujjatlar tahlilini keltirib



o'tamiz. Konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri qo'llashning yagona sud amaliyotiga erishishi maqsadida 2023-yilning 23-iyun sanasida Oliy sud Plenumining 16-sonli qarori qabul qilindi. Uning 4-bandida shunday yoziladi: "Sudlar inobatga olishi kerakki, sud hujjatlarida huquqiy asos sifatida birinchi navbatda, qoida tariqasida, Konstitutsiyaning tegishli normalariga va undan keyin yuridik kuchiga qarab boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, basharti qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalariga zid bo'lganligi aniqlangan taqdirda esa, faqatgina Konstitutsiyaning tegishli normalari qo'llanilishi lozim" [9]. Albatta ushbu normaning belgilanishi Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishiga ijobiy ta'sir qiladi va islohotlarning samaradorligini tezroq namoyon qiladi degan fikrdamiz. Bundan tashqari 2023-yil 5-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining "Mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axborotini tasdiqlash haqida" gi 7-sonli qarorida Konstitutsiyani to'g'ridan-to'g'ri qo'llash, uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar va takliflar keltirib o'tiladi. Xususan, quyidagilar shular jumlasidandir:

1. Konstitutsiya ustuvorligi, inson va fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarini ta'minlash o'z navbatida qonuniylik va huquq ustuvorligiga ta'sir etayotgan omillarni vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vaqtida aniqlash va tezkor chora ko'rishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan Konstitutsiyaviy sud aholi murojaatlarida ko'tarilgan konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash bilan bog'liq quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratadi:

bola huquqlari buzilishi holatlari kuzatilayotganligini inobatga olib, bolalarni turli ko'rinishdagi zo'ravonliklardan himoya qilish, bu borada ota-onalar, ta'lim tashkilotlari, boshqa mutasaddi idoralar mas'uliyatini oshirish, tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq;

mulk huquqi kafolatlariga rioya etmaslik holatlari sezilarli kamaygan bo'lsa-da, hali bu sohada muammolar saqlanib qolayotganligini inobatga olib, mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillarining ushbu masalalarda huquqiy madaniyatini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mulk huquqi buzilishi holatiga mutlaqo toqatsiz munosabatini shakllantirish, bu borada profilaktik choralarni kuchaytirish zarur;

ba'zi hududlarda tadbirkor o'z mahsulotini viloyat hududidan erkin olib chiqib ketishda to'sqinliklarga uchrashi holatlarini e'tiborga olib, barcha mas'ullardan tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishi bo'yicha konstitutsiyaviy kafolatlariga so'zsiz rioya etish talab etiladi [10].

Ushbu holatlar yuzasidan Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy huquqlarga rioya etmaslik holatlari vakolatli davlat organlari diqqat-e'tibori markazida bo'lishi kerakligi, bu bilan bog'liq har bir holat zudlik bilan o'rganilishi hamda buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha zarur choralar ko'rilishi lozimligini ta'kidlaydi, shuningdek, Hukumatni va mas'ul tashkilotlarni faqatgina aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish bilan cheklanmasdan, ularni yuzaga keltirgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli choralar ko'rib borishga chaqiradi.

Albatta, bunda ko'rib turishimizki, davlat o'z funksiyasining nafaqat huquqiy, balki nohuquqiy shakllaridan keng foydalanishi talab etiladi. Aynan Oliy sud Plenumining qarorida belgilangan norma davlatning ushbu funksiyasini huquqiy jihatdan ta'minlashga xizmat



qilayotgan bo'lsa, Konstitutsiyaviy sudning qarorida belgilangan profilaktik choralar, ayrim huquqlar buzilishi bo'yicha ota-onalar, mutasaddilarning ma'suliyatini oshirish kabilar esa nohuquqiy jihatdan buni ta'minlashga yordam bermoqda.

Bulardan tashqari, huquqshunos olim I.Bekov Konstitutsiyaning bevosita amal qilishini ta'minlash uchun quyidagi choralarni ko'rishni maqsadga muvofiq deb hisoblashini keltirib o'tadi:

- Konstitutsiya ruhini amalda ta'minlovchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish.
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini yaratish, jumladan davlat va nodavlat tashkilotlari orqali fuqarolarga o'z huquqlarini himoya qilishda yordam berish.
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish imkonini beruvchi mustaqil va malakali sud tizimini takomillashtirish.
- sud adolatining samaradorligini ta'minlash, jumladan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va sud qarorlarining sifatini oshirish.
- fuqarolarga Konstitutsiyada kafolatlangan huquq va erkinliklar haqida ma'lumot berish tizimini joriy qilish, shunda ular o'z huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qila oladi.
- fuqarolarning axborot olish va so'z erkinligi huquqini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, bu esa ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishlariga imkon beradi.
- davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan konstitutsion normalar va kafolatlarning bajarilishi ustidan jamoatchilik nazorati tizimini yaratish, vakolatdan suiiste'mol qilishning oldini olish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish [11].

Darhaqiqat, ushbu takliflarning ham amalga kiritilishi muhokama mavzusi bo'lgan institutni rivojlantirishga va O'zbekiston huquqiy amaliyotida yangi bosqichga olib chiqishda katta ahamiyatga ega. Biz ham ushbu takiflarga qo'shilgan holda yana ayrim takliflar va ularning tahlilini keltirib o'tmoqchimiz.

Birinchidan, Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishida huquqiy terminologiyaning to'g'ri ishlatilishi va mavhumlikka iloji boricha yo'l qo'ymaslik kerak. Shunda huquqni fuqarolar ham, huquqni qo'llovchilar ham muammoli vaziyatlarga duch kelmaydi.

Ikkinchidan, Konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qilishida huquqni qo'llovchilar tomonidan turli talqinlarga yo'l qo'ymaslik uchun davlat organlarida Konstitutsiya normalari va ularning mazmuni bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish kerak. Qolaversa, fuqarolarga ham o'z huquq va majburiyatlarini Konstitutsiya doirasida tushuntirish bo'yicha turli tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish darkor.

Unchinchidan, Ombudsman va uning huzuridagi Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga rioya etilishi bo'yicha komissiya faoliyatini takomillashtirish. Shuningdek, ushbu institutlardan aholining xabardorlik darajasini oshirish.

To'rtinchidan, aynan Konstitutsiyadagi huquqlarni bevosita himoyasiga yo'naltirilgan maxsus mexanizm - amparo institutini ishlab chiqishni taklif qilamiz. Buni xorijiy amaliyot tahlilida ko'rishni lozim deb bilamiz.

Amparo instituti. Amparo instituti mazmuni shundan iboratki, fuqaroning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquqlari davlat organlari tomonidan buzilganda yoki



buzilishiga tahdid bo'lganda uning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus tashkil etilgan huquqiy himoya mexanizmidir. Amparo institutining maqsadi fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan huquqlarini maxsus, tez, bevosita va samarali hal etishdir. Amparo instituti ko'proq Lotin Amerikasi davlatlari amaliyotida tarqalgan huquqiy himoya chorasidir. Quyida ushbu institut bo'yicha xorij amaliyotidan misollar keltiramiz va ushbu institutni O'zbekiston huquqiy tizimida joriy etish masalasini muhokama qilamiz.

Peru Konstitutsiyasining 200-moddasiga ko'ra fuqarolarning Konstitutiya da belgilangan huquqlarini amalga oshirilishiga davlat organlaridan to'sqinlik bo'lsa, yoki bu huquqlar ular tomonidan buzilsa, fuqarolar amparo institutidan foydalanishi mumkin [12]. Shuningdek ayni institut (recurso de amparo) Ispaniya Konstitutsiyasining 53-moddasida [13] va Kosta Riko Konstitutsiyasining 48-moddasida ham aks ettirilgan [14].

Ushbu institutni O'zbekiston huquqiy tizimida joriy qilishda ikkita yo'l mavjud. Birinchisi bu - vakolatni ma'muriy sudlarga berish; Ikkinchisi esa aynan amparo da'volarini ko'rish uchun alohida sudlar tashkil qilish. Tabiatan amparo da'volarini ko'rishga vakolatli organ sifatida ma'muriy sud ko'rinsa-da, bizningcha bu da'volar har qanday ma'muriy huquq manbalarining emas, aynan Konstitutsiya normalarining buzilishi, qolaversa aynan Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlashga qaratilgani uchun bunga alohida yondashish kerak.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi prinsipi O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan juda muhim va amaliy jihatdan eng kerakli prinsiplardan bo'lib, ushbu prinsipning amalda ishlashi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining kafolat hisoblanadi. Ushbu ishni amalga oshirishda davlatning turli funksiyalaridan foydalanish, shuningdek ilmiy-doktrinal manbalarni, xorijiy davlatlar amaliyotini o'rgangan holda ulardan eng maqbullarini, bizning huquqiy tizimimizga mos keluvchilarini tatbiq qilishga harakat qilish kerak. Yuqorida biz bu bo'yicha turli olimlar fikrlarini keltirib o'tdik, qolaversa, quyidagilardan iborat bo'lgan o'z takliflarimizni keltirib o'tdik. Birinchidan, Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishida turli mavhumliklarni oldini olish uchun davlat organlarida turli o'quv kurslari tashkil etish kerak va eng birinchi navbatda mansabdor shaxslarga Konstitutsiya normalarining mazmuni tushuntirilishi kerak. Ikkinchidan, Ombudsman institutidan fuqarolarning xabardorlik darajasini oshirish zarur, shunda fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlari himoyasi uchun kurashishda faollik darajasi oshadi. Buning natijasida esa davlat organlari tomonida asta-sekin fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish holatlari kamayadi va Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi kafolatlanadi. Uchinchidan, Konstitutsiyaviy huquqlar himoyasi uchun maxsus yo'naltirilgan "Amparo instituti"ni tashkil qilish va ushbu institutga murojaat qilishning sodda tartibini ishlab chiqish darkor. Fikrimizcha, ushbu takliflarni amalga kiritish orqali Konstitutsiyamizdagi ushbu normaning yanada barqaror ishlashiga erishish mumkin.

References:

1. Zhang, Qianfan. (2014). On the Selective Application of the Chinese Constitution. Peking University Law Journal. 2. 10.5235/205174814813464705.
2. Manasyan, A. (2021). *Direct effect of the Constitution and its impact on case-law in the Republic of Armenia*. Revista Institutului Național al Justiției, (3)58. [https://doi.org/10.52277/1857-2405.2021.3\(58\).09](https://doi.org/10.52277/1857-2405.2021.3(58).09)



3. Kostitutsiyaviy huquq: darslik/Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 800b.
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. – 400 bet.
5. **Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб.** Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Тошкент. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахбо- рот маркази, 2023 йил. – 180 б.
6. Eshpulatova, N. S. (2023). *Yangi O'zbekistonning huquqiy poydevori*. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 3(6), June. <http://www.oriens.uz>
7. <https://www.parlamento.pt/sites/EN/Parliament/Documents/Constitution7th.pdf> - Portugaliya Konstitutsiyasi
8. <https://www.btg-bestellservice.de/pdf/80201000.pdf> - Germaniya Konstitutsiyasi
9. <https://lex.uz/docs/-6523654> – Oliy sud Plenumining 16-sonli qarori
10. <https://lex.uz/docs/-6687775> - Konstitutsiyaviy sudning 7-sonli qarori
11. Bekov, I. (2023). *Direct application of the Constitution - the basis of a unified legal space throughout the country*. American Journal of Public Diplomacy and International Studies, 1(6). ISSN (E): 2993-2157.
12. <https://faolex.fao.org/docs/pdf/per127779E.pdf> - Peru Konstitutsiyasi
13. <https://www.tribunalconstitucional.es/es/tribunal/normativa/normativa/constitucion-ingles.pdf> - Ispaniya Konstitutsiyasi
14. <https://faolex.fao.org/docs/pdf/cos127451E.pdf> - Kosta Riko Konstitutsiyasi.